

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN NAZARIYALARING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Saidboyev Baxodir Djalolitdinovich

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotcenti

Mambetsharipov Yusup Raxatovich

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotcenti

Annotatsiya. Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istik, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Kalit so'zlar: taraqqiyot strategiyasi, chora tadbirlar, axborot, internet, texnologiya, deklaratsiya, modda, axborot tarqatish, axborotni izlash, bag'rikenglik

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi negizida ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi o'tgan qisqa davrda davlat va jamiyatni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichiga asos soldi. Bu muhim hujjat tom ma'noda yangi O'zbekistonni bunyod etishning mustaqil huquqiy poydevori ekanini amalda namoyon etib ulgurdi.

Harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini takomillashtirish uchun asos bo'ldi. Bunda Konstitusiyamiz Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan demokratik islohotlarni amalga oshirishning asosi sifatida xizmat qilishiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, “.....mustaqil O'zbekistonimiz Konstitusiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy voqeа bo'ldi”. Konstitusiya va milliy tiklanish, ma'naviyat va ma'rifat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, milliy o'zlik va azaliy qadriyatlar, bu ko'hna zamin odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat va odillik, iymon va oljanoblik, bag'rikenglik va mardlik, insonparvarlik va tantilik kabi ulug' xislatlar Konstitusiyadan munosib o'rin olgan.

Xususan, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq vazifalar belgilangan bo'lib, mazkur choratadbirlar har yili qabul qilinayotgan Davlat dasturlarida o'z aksini topmoqda hamda ularning ijrosi izchil ta'minlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining har bir chiqishlarida sohaga mas'ul bo'lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini pportu va jazolash emas, balki jinoyat

sodir etilishiga sharoit yaratib bergen holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishslashga alohida urg'u qaratishni ko'p bora ta'kidlab o'tgan.

Jahonda huquqbarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbarliklar profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini pportu dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, huquqbarliklar sodir etilishining sabab pportun – sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan davr mobaynida respublikamizda huquqbarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit huquqiy baza shakllandi. Huquqbarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq- tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublarini tubdan o'zgartirish, qonun buzilishi holatlarini fosh etish va choralar ko'rish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlashni, ushbu idoralarning eng asosiy vazifasiga aylantirish, huquqbarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining samarali tizimini joriy etish, huquqbarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2021 yilning 26 mart kuni qabul qilingan "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni [1] mazkur vazifalar ijrosida muhim ahamiyatga ega.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish muammolari har doim o'ziga xos tarzda jamiyat va davlat oldida turgan muhim dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblangan. Jamiyatda doimo unga qarshi kurashish uchun turli usul va vositalar orqali kurashishga harakat qilingan. Bugungi kunga qadar mazkur sohada katta bilim va tajriba to'plagan. Zamonaviy kriminologiya va sotsiologiya fanlari jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan o'nlab asosli nazariyalar, konsepsiylar va doktrinalarni ishlab chiqishga muvofiq bo'lgan. Bizningcha, ushbu boy nazariy tajribadan O'zbekistonda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan siyosatni rivojlantirishda samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, ushbu ilmiy jihatdan asoslangan nazariyalarsiz jinoyatchilikka samarali qarshi kurashish mushkuldir.

Ijtimoiy o‘rganish nazariyası – (Social learning theory) ilk bor olimlar R.Byurjes va R.Akerslar tomonidan taklif etilgan bo‘lib [2], shaxs xulq-atvorining jamiyatda o‘zaro munosabatlar doirasida o‘zgarishi, deviant va jinoiy xulq – atvorning jamiyatdagi umumiy jarayonlardan o‘rganib, kelib chiqib shakllanishi haqidagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu nazariya asosan shaxs nega deviant harkatlar (jinoyat) sodir etadi yoki sodir etmaydi degan savolga javob qidiradi. Shu sababli ham nazariya psixologiya, sotsiologiya, kriminologiya fanlari mexanizmlariga, ayniqsa psixolog olim Skinnerning mashhur operant sharoitdagi xulq-atvor nazariyasiga [3] tayanadi.

Ijtimoiy o‘rganish nazariyasining asosiy komponentlari – konsepsiyalari quyidagilardir: differensial aloqa (differential association), tushunchalar (definitions), differensial jihatdan kuchaytirish (differential reinforcement), imitatsiya (imitation) [4]. Differensial aloqa konsepsiysi shaxsning jamiyatdagi aloqalari, masalan oila, do‘stlar, yaqinlar bilan turli shakldagi aloqalar, shuningdek u o‘rganadigan manbalar (kitoblar, internet, televideniye) uning jinoiy xulq – atvori shakllanishining asosi degan mazmunni ilgari suradi. Keyingi pportuni – tushunchalar esa muayyan shaxsning xulq-atvorga bog‘lanuvchi e’tiqodi va qarashlarini o‘z ichiga oladi. YA’ni, shaxs o‘z tushunchasi orqali muayyan vaziyat va hodisalarni, shuningdek unga o‘ziga xos xulq - atvorini ham o‘sha tushunchalar (g‘oya, e’tiqod, ishonch, qarash, qadriyat)ga ko‘ra yo‘naltiradi hamda ratsionallashtiradi unga ko‘ra, o‘z harakatlarini yaxshi yoki yomon sifatida baholaydi. Bunga diniy e’tiqod misol bo‘la oladi. Zero, e’tiqod shaxsga nima yaxshi pportu yomonligini, vaziyatga qanday baho berishni o‘rgatadi.

Keyingi konsepsiya differensial jihatdan kuchaytirish esa, shaxsning o‘z xulq-atvorini uning natijasida bo‘ladigan rag‘bat yoki jazoga qarab shakllantirishini nazarda tutadi. Bu fikr Skinnerning operant shartli xulq-atvor nazariyasiga tayanadi: Xulq – atvor pozitiv va pportun rag‘batga yoki pozitiv va pportun jazoga qarab shakllanadi. Masalan, jinoyat uchun jazoning qattiq va muqarrarligi shaxsni jinoyat sodir etishdan tiyishi, aksincha muayyan harakatni qilmaganlik uchun jazo mavjudligi esa, o‘sha harakatni qilishga olib borishi mumkin. Lekin, pozitiv rag‘bat xulq-atvorni ko‘proq o‘zgartirishini ta’kidlab o‘tish lozim.

Imitatsiya konsepsiysi shaxsning xulq-atvori boshqalarning xulq-atvor modelini kuzatish va o‘rganish hamda ularga o‘xshashga intilishni anglatadi. Masalan, shaxs jinoyat hodisasi sodir bo‘lishini ko‘radi (jinoiy harakatdan olingen boylik, kuch, rag‘bat, obro‘ va h.k.), o‘rganadi va takrorlaydi. Bunday xulq-atvor ayniqsa yoshlarda ko‘proq uchraydi. Imitatsiya nafaqat o‘zi guvoh bo‘lgan jinoiy harakatlardan, balki media orqali ham o‘rganib amalga oshirilishi mumkin. Muayyan deviant yoki jinoiy xulq-atvor modellarining takrorlanishi yoki rag‘batlantirish oqibatlari unga taqlid orqali jinoyatchilik ko‘payishiga olib keladi.

Umumiy bosim nazariyasi (General Strain Theory) – ko‘ra jamiyatdagi umumiy zo‘riqish va bosim omillari, masalan iqtisodiy muammolar, jismoniy va ruhiy bosimlar jinoyat sodir etilishi ehtimolini oshiradi [5]. Bu nazariyaga ko‘ra, jamiyatdagi zo‘riqishlar natijasida shaxslarda paydo bo‘lgan g‘azab, tushkunlik va boshqa salbiy hissiyotlar ularni undovchi harakatlarga aylanishiga sabab bo‘ladi: Yetishmovchilik o‘g‘rilik va talonchilikka, ruhiy yoki jismoniy bosim qasos olish uchun zo‘ravonlikka, kuchli tushkunlik va nochorlik esa, narkotik moddalar iste’moliga sharoit yaratadi. Olimlar mazkur bosimlarni turli mezonlarga ko‘ra, klassifikatsiya qilishadi. Masalan, B.Tizdeylga [6] ko‘ra bosimning asosiy turlari quyidagilar:

a) jamiyatdagi asosiy maqsadlarga erisha olmaslik (bu iqtisodiy bosim bo‘lishi mumkin, masalan yetarli mablag‘I yo‘qligi uchun uy-joy yoki yaxshi sharoitlarga ega bo‘la olmaslik);

b) pozitiv rag‘batni yo‘qotish (masalan, oilasidan ajralish, ish joyini yo‘qotish);

v) pportun rag‘batlar (masalan, jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lish).

Bu bosimlar shaxslarni jinoyat sodir etishga undashi mumkin. Ushbu nazariya ham jinoyatchilik sabablarini o‘rgangan holda, uni oldini olishga qaratilgan ilmiy takliflar bera oladi.

Ijtimoiy nazorat nazariyasi (Social Control Theory) – Travis Xirshining [7] 1969 yildagi “Huquqbazarliklar sabablari” (Causes of delinquency) asarida ilgari surilgan g‘oyalarga asoslanadi. Bu nazariyaning asosiy g‘oyasi shuki, shaxs jamiyatga kirishib moslashib ketmasa, jamiyat bilan aloqalari zaif bo‘lsa, uning huquqbazarliklar sodir etish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. YA’ni, huquqbazarliklar sababi bu shaxs va jamiyatning o‘zaro aloqalari, shaxsning jamiyatga integratsyasi sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Xirshi fikricha, bizning jamiyat bilan bog‘lab turuvchi rishtalar bizning ushbu jamiyatdagi qoidalar (huquq) qanchalik muvofiqligimizni bildiradi, rishtalar zaifligi huquqning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik 4 asosiy elementdan tashkil topadi: bog‘liqlik, intilish (majburiyat olish), ishtirok etish va e’tiqod (ishonch). Nazariya asoschilariga ko‘ra, pportunist-onalari, o‘qituvchilar va boshqa yaqinlarga ko‘proq bog‘liq yoshlar jinoyat sodir etishga kamroq moyil bo‘lishadi. O‘zbekistonda shaxslarning jamiyatga, ota-onasi va yaqinlariga bog‘liqligi jinoyatchilikning anchagina jilovlanishi sababi ekanligi ham o‘z tasdig‘ini topgan. Ota-ona, bola-chaqa kabi rishtalar ko‘plab insonlarni huquqbazarlik sodir etishdan tiyib turuvchi omillardan biri hisoblanadi. Jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan milliy siyosatda ota-onalar, ta’lim muassalariga katta e’tibor beriladi. Albatta, to‘g‘ri yo‘naltirilgan, boshqalar huquqlariga zarar yetkazmagan holda, olib borilgan ijtimoiy nazorat choralar yaxshi natija beradi.

Bu nazariya asosida ko‘plab foydali chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin. Masalan, maktablarda huquqbazarliklarni oldini olishga qaratilgan darslar yoki qisqa

kurslar olib pportu, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ota – onalariga bu haqida xabar berish orqali ularning nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiq.[8] Biroq, bunday jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim jarayoni va o‘qituvchilarga ortiqcha yuklama yuklamaslik kerak. Qolaversa, voyaga yetgan shaxslar bo‘yicha oliy ta’lim muassalariga bunday choralar natija bermasligini ham inobatga olish lozim.

Ta’lim olishda yuqori muvaffaqiyatlarga intilgan yoshlarda jinoyat sodir etishga moyillik past bo‘lishi ta’kidlanadi [9]. O‘qish, ilm olishga intilgan, ta’lim orqali jamiyatda belgilangan maqsadlari (yaxshi yashash sharoitlari, pportu h.k.)ga yetishiga ishongan yoshlari ko‘proq ijtimoiy nazorat doirasida bo‘ladi va jinoyat sodir etish ehtimoli ancha past bo‘ladi.

Umumiy jinoyat nazariyasi (General Theory of Crime) yoki o‘zini nazorat qilish nazariyasi (Self-control Theory) – umumiy jinoyat nazariyasi klassik kriminoligik nazariya bo‘lib, unga ko‘ra shaxs biror bir shaklda rohat olish yoki og‘riq (bosim, nafrat)dan qochish uchun jinoyat sodir etadi. Masalan, osonroq (mehnat qilmasdan, qiynalmasdan, umuman olganda rohat olish) pul pportu uchun o‘g‘rilik (firibgarlik, talonchilik, pora olish va hk) qiladi, rohat olish uchun narkotik iste’mol qiladi yoki og‘riq yoxud qiyinchilikdan qochish uchun amalga oshiriladi. Masalan, kimdir uni g‘azabini keltirsa, unga tan jarohati yetkazadi. Aksincha, o‘ziga zarar yetkazmasligi uchun boshqaga jarohat yetkazishi yoki o‘ldirish holatigacha borishi mumkin. Mazkur nazariyaga ko‘ra, shaxslar o‘zini nazorat qila olish (o‘z hissyotlarini boshqarish, boshqarlarga va o‘ziga zarar yetkazadigan harakatlarni, garchi u rohat yoki zavq bag‘ishlasa ham qilishdan tiyilish va hk.) darjasiga ko‘ra, jinoyat sodir etishga moyillikda bir-birlaridan farq qiladi. Tadqiqotchilar shaxsning o‘zini nazorat qilishi asoslarini uning bolalik davridan qidirishadi. Chunki, bu nazorat bolalikdan shakllanadi. O‘zini uncha nazorat qilolmaydigan shaxslarda turli deviant va jinoiy xulq-atvorga moyillik yuqori bo‘lishi ko‘plab tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Tadqiqotlar o‘zini nazorat qila olish darajasi orqali shaxsning jinoyat sodir etishini oldindan aniqlash mumkinligini ham ko‘rsatadi [10].

Ushbu anzariyaga tanyagan holda shaxslarni bolalikdan intizom va hurmatga, o‘zini nazorat qilishga o‘rgatish kelajakda ularning jinoyat sodir etishlari ehtimolini pasaytiradi. Bu maktablarda, maktabgacha ta’limda turli dasturlar (qisqa kurslar, butun ta’limdagi umumiy intizom va boshqalarni hurmat qilishga chorlovchi chora-tadbirlar va h.k.) pportun – tadbirlar orqali shakllantirilishi zarur.

Ijtimoiy buzg‘unchilik nazariyasi (Social Disorganization Theory) – 1942 yilda Amerikalik olimlar S.Shou va X.MakKay Chikago shahrining hududlari (tumanlari) kesimida jinoyatchilik bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazadi va aniqlashadiki, jiinoyatchilik butun pport bo‘yicha emas, aynan muayyan bir tumanda, ya’ni aholi juda mobil, ko‘chib kelish va ko‘chib ketish ko‘proq bo‘lgan, aholi bir-birlarini unchalik yaxshi bilmaydigan tumanlarda boshqa joylarga nisbatan ancha ko‘p sodir etilarkan [11].

Bunday mobil va bir-birni yaxshi bilmaydigan jamoatchilik hududlarida jamoatchilik jinoyat va huquqbuzarlik ustidan norasmiy tartibotlarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy munosabatlarni o‘rnata olmaydi. Natijada esa jamiyat bosimi va tartibotini his qilmaydigan va xuddiki bu jamoaga begona kabi munosabatda bo‘lgan shaxslar jinoyatga ko‘proq moyillasha boradi. Jamoa uni nazorat qilolmaydi va tartibga chaqirish uchun norasmiy bosim imkoniyatiga ega emas.

Keyinchalik o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar ham muayyan hudud (mahalla, tuman)dagи ijtimoiy aloqalar, norasmiy ijtimoiy nazorat hamda jinoyatchilik o‘rtasida kuchli bog‘liqlik borligini ko‘rsatgan. Mazkur ijtimoiy buzg‘unchilik nazariyasi va uning zamonaviy talqinlari bizning jinoyatning muhitga bog‘liq omillari haqidagi bilimlarimizni boyitdi. Va bu nazariyaga tayangan holda jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan ko‘plab dastur pportun- tadbirlar yaratilgan. Ushbu nazariya milliy pportunis siyosatda ham qo‘llaniladi. Masalan mahalla institutining jinoyatchilikni oldini olishdagi rolini ham ushbu nazariyaning isboti siftaida qabul qilish mumkin. Demak ushbu nazariya mexanizmlarini to‘liq o‘rgangan holda milliy pportunis siyosatni takomillashtirish, jinoyatchilik sabablarin tushunish va samarali choralar ishlab chiqish mumkin.

Muntazam faoliyat nazariyasi (Routine Activity Theory) – ushbu qiziq sotsiologik nazariya shaxslarning kamchiliklarini tadqiq qiluvchi yuqoridagi nazariyalardan farqli o‘laroq, jamiyatdagi muayyan jarayon yoki holatning kriminogen jihatlariga va doimiy ish bilan band bo‘lgan jamiyatdagi viktimsatsiyaga e’tibor qaratadi. Zamonaviy jamiyatda inson faoliyati muntazam bir kundalik tartibga tushgan, ish kunlari jamiyatning ko‘pchilik qismi bir xil vaqtida ishga borib bir vaqtida qaytadi, muayyan kunlari esa dam oladi. Ushbu muntazam holat (routine) jinoyatlar ham ayni muayyan vaqt va makonda sodir bo‘lishi mumkinligini asoslaydi (masalan, tungi dam olish maskanlarida doimiy zo‘ravonlik, ichkilik, ertalabda ish vaqtি bo‘lgani uchun bunday holat juda kam yuz beradi).

Mazkur nazariya asoschilari L.Kohen va M.Felzonga ko‘ar jinoyat bu jinoyatchiga faqatgina jinoyatchiga foyda keltiruvchi opportunistik (vaziyatga qarab og‘ib turadigan) faoliyatdir va u jamiyatdagi qonuniy faoliyat va texnlogiyalarga nisbatan salbiy xarakterga ega [12]. Nazariya shaxsning nima uchun sodir etganini emas, balki qanday holat, sharoit, vaziyat unga jinoyat sodir etishga imkoniyat yaratganini o‘rganadi.

Nazariya doirasida bir qancha konsepsiylar mavjud: qiymat (masalan, o‘g‘ri qimmatroq va qadrliroq narsani o‘g‘irlashga harakat qiladi), inersiya (sodir etishga yetarli kuch, imkoniyat bo‘lishi, masalan, zo‘ravonlik jinoyatlarida jinoyatchi asosan jabrlanuvchi ojiz va kuchsiz bo‘lganda ko‘proq sodir etishga ishtiyoqli bo‘ladi), ko‘zga ko‘rinib turish (ya’ni, jinoyatlar ko‘zga ko‘rinib turgan qurban yoki ashylarga

nisbatan sodir etilishi ko‘p uchraydi), qulay imkoniyatlilik (masalan, uy qulflanmagan bo‘lsa o‘g‘rilik sodir etish imkoniyati ochiladi).

Ushbu nazariya jinoyatlarni oldini olishda jazolash va tushuntirish ishlarini kuchaytirishni emas, balki jinyat sodir etishga jozibali bo‘lgan, unga imkoniyat yaratadigan, sodir etilishini osonlashtiradigan aniq fundamental holatlarni bartaraf etishni taklif etadi. Masalan, uy - joylarda xavfsizik tizimlari o‘rnatish, qimmat bumlarni olishga qulay bo‘lmagan, ko‘zga ko‘rinmaydigan joylarda saqlash, qo‘riqlash va xavfsizkni kuchaytirish kabi choralarini taklif etadi. Chunki, jinoyatlar ushbu nazariyaga ko‘ra imkoniyat bo‘lgan taqdirda sodir etiladi, imkoniyatlarni bartaraf etish esa bu ehtimolni pasaytiradi.

Ushbu nazariyalar va ular doirasda ishlab chiqilgan fundamental g‘oyalarni tizimli asosda o‘rganilib mamlakatimizda jinoyatchilikni oldini olish choralarini ishlab chiqishda foydalanilishi samarali bo‘ladi. Bu g‘oya va nazariyalar ko‘plab tadqiqotlarda tasdiqlangan bo‘lib, uning asosiy qoidalarini milliy siyosatda qo‘llash ehtiyoji mavjud. Masalan, bugun juda avj olgan firibgarlik jinoyatining asosiy qismi avtomobil sotib olish, yer va ko‘chmas mulk sotib olish, chet elda ishlash huquqiga ega bo‘lish kabilar bilan bog‘liq vaziyatlarda sodir etilmoqda. Firibgarlarni jazolash, ehtimoliy jabrlanuvchilarga yetarli tushuntirish va huquqiy xizmatlar yetarli samara berayotgani yo‘q. Bu o‘rinda yuqoridagi nazariyalar va fundamental sotsiologik tadqiqotlar asosida firibgarlik va viktimizatsiya asoslarini, unga sharoit yaratgan holatlarni bartaraf etish zarurati bor.

Xulosa qilib aytganda, joylarda yoshlarni sog‘lom va komil inson qilib o‘stirish va tarbiyalash, ularning sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi uchun barcha sharoitni yaratib berish, bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishi uchun kutubxonalar tashkil etish borasida turli jamoat va davlat tashkilotlari vakillari, mahallalar faollari bilan hamkorlikda samarali ish olib borsak, har tomonlama bilimli, yuksak mana’viyatli yoshlarimiz yaqin va uzoq istiqbolda mamlakat va xalqimiz hayotining rivojlanishi uchun bor kuch-g‘ayrat va salohiyatini ayamaydi.

Mamlakatimizda huquqbazarliklarning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 06/21/6196/0240-son;
2. Burgess, R. L., & Akers, R. L. A differential association-reinforcement theory of criminal behavior. Social Problems. 1966. B – 128–147;
3. Skinner, B. F. Sciences and human behavior. New York: MacMillan. 1953. B. 42;
4. Brent Teasdale • Mindy S. Bradley. Preventing Crime and Violence. Springer International Publishing Switzerland 2017. B. 13;
5. Brent Teasdale • Mindy S. Bradley. Preventing Crime and Violence. Springer International Publishing Switzerland 2017. B. 21;

6. O'sha joyda. B. 21;
7. Hirschi, T. Causes of delinquency. Berkeley University of California Press. 1969;
8. Brent Teasdale • Mindy S. Bradley. Preventing Crime and Violence. Springer International Publishing Switzerland 2017. B. 34;
9. Hoffmann, J. P., Erickson, L. D., & Spence, K. R. Modeling the association between academic achievement and delinquency: An application of interactional theory. *Criminology*, 51(3). 2013. B. 629–660;
10. Agnew, R. General strain theory: Current status and directions for further research. In F. T. Cullen, J. P. Wright, & K. R. Blevins (Eds.), *Taking stock: The status of criminological theory* (Vol. 5, pp. 101–123). New Brunswick: Transaction Publishers. 2008. B. 118;
11. Shaw, C. R., & McKay, H. D. Juvenile delinquency and urban areas (rev ed.). Chicago: University of Chicago Press. 1942. B. 92;
12. Cohen, L. E., & Felson, M. Social change and crime rate trends: A routine activity approach. *American Sociological Review*, 44. 1979. B. 588–608.